

AVTOMOBILLAR UCHUN ZAMONAVIY YUVISH-QURITISH ISHLARINI MEXANIZASTIYALASH

Sotvoldiev Xasanboy Rasuljon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti stajyor o'qituvchisi.

Tursunov Nofarbek Lochinbek O'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada avtomobillarni yuvish-tozalash ishlari ulardagи jarayon, yuvish, quritish, tozalash jihozlari bilan ishlash va ayman shu jihozlar turini tanlash va servis korxonalaridagi yuvish-quritish postlari uchun jihozlash hamda mexanizastiyalashtirish usullari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Tozalash jihozlari, kuzov, avtomobil, yuvish qurilmalari, mexanizastiyalashtirilgan yuvish uskunaları.*

Аннотация: В данной статье описан процесс мойки и чистки автомобилей, работа с моющим, сушильным, чистящим оборудованием, выбор типа оборудования, а также оснащение и механизация моющих и сушильных станций на предприятиях сферы обслуживания.

Ключевые слова: Чистящее оборудование, кузовное оборудование, автомобиль, моющее оборудование, механизированное моющее оборудование.

Abstract: This article describes the process of car washing and cleaning, working with washing, drying, cleaning equipment, choosing the type of equipment, and equipping and mechanizing the washing and drying stations at service enterprises.

Key words: Cleaning equipment, bodywork, car, washing equipment, mechanized washing equipment.

KIRISH

Avtomobillardan turli maqsadlarda, turli yo'l iqlim sharoitlarida foydalanish, ularning turli xil ifloslanishiga olib keladi.

Yuk avtomobili kuzovlarining ifloslanishi tashiladigan yuk turiga bog'liq bo'lib, ular qum, tuproq, ko'mir, qurilish materiallari va iste'mol mollari bo'lishi mumkin.

Tashqi muhit harorati, yog'ingarchilik va kuzovga yopishib qolgan iflosliklar ta'sirida bo'lган joylardagi, bo'yoqning kimyoviy va fizik xususiyatlari o'zgarib, yuza asta sekin eskiradi. Bularning oldini olish va TXK ishlarini sifatli bajarish maqsadida tozalash, yuvish va quritish ishlari olib boriladi.

Tozalash jihozlari.

Tozalash ishlaridan maqsad kuzovda qolgan yuk qoldiqlarini yig'ishtirish, yuk avtomobillarining kabinalari, avtobus va engil avtomobil salonlarini changdan tozalashdan iborat. Buning uchun har hil turdag'i changyutgichlardan foydalilanadi, ular qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan bo'lib, elektr dvigateli quvvati 2 kVt gacha bo'lishi mumkin.

Engil avtomobil va avtobus kuzovi, yuk avtomobilining kabinasi, platformasini kir va changdan tozalashda elektr changyutgich(2.1-rasm) va qo'zg'almas chang so'ruchchi qurilma, qo'lida ko'tarib yuruvchi va qo'zg'almas chang so'rgichlardan foydalaniladi.




1-rasm. NT 561 Eco modelidagi avtomobillar salonini tozalash ishlariga mo'ljallangan chang so'rgich mashinasi

Elektr changyutgich quyidagilardan tuzilgan: elektr shabadalatgich va changyutgich uchida konussimon kallakli, cho'tkali shlanglar majmuasidan iborat. Chang so'rg'ichning to'siqli ichagidagi havo so'rish bosimi 11.12 Pa bo'ladi.

Yirik avtoservis korxonalari va avtobus saroylarida qo'zg'almas chang so'rgichlardan foydalanish katta samara beradi.

Yuvish jihozlari. Avtomobillarni yuvish qurilmalari umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Umumiy turdag'i yuvish jihozlari yuvishga qulay bo'lib, ular yordamida avtomobilning ostini ham yuvish mumkin. Bu ishlar maxsus maydonda va turli ko'rish ariqlarida, estakada va ko'targichlar yordamida bajariladi. Ko'rish ariqchalari devorlari, maydonchalari yuzasi nam o'tkazmaydigan lappakchalar bilan qoplanib, poli suvlar oson oqib ketishi uchun 2-3% qiyalikda bo'ladi.

Avtomobillar turiga hamda yuvish usuliga qarab, maxsus yuvgichlar qo'lida yuvish uchun moslashgan, mexanizastiyalashgan, avtomatlashgan va aralash turda bo'lishi mumkin.



2-rasm. Mexanizastiyalashtirilgan yuvish uskulalarning asosiy turlari. Oddiy qo'lida yuvish: shlanga va sepkich yordamida past bosimli (0.2- 0.4MPA), yuqori bosimli (1-2.5MPA) bo'lishi mumkin.

Shlangali yuvish jihozlari kichik avtoservis korxonalarida ishlatalib, ular aravachaga o'rnatilgan agregatdan iborat bo'ladi (2.-rasm).

Agregatlar 2-2,5 MPa gacha bosim hosil

qiluvchi plunjjerli yoki markazdan qochma nasoslardan, shlanga uchiga o'rnatilgan yuvuvchi kallakdan va yuvuvchi aralashma uchun sig'imdani iborat bo'ladi. Yuvuvchi kallakka teshigining diametri har xil bo'lgan forsunkalar o'rnatiladi.



3-rasm. Karcher 7.85 M plus modelidagi avtomobilarni yuqori bosimda qo'lda yuvish jihizi

Texnik tavsifi: bosim 2-15 Mpa; samaradorligi - 550 l/soat; suvning chiqishidagi maksimal harorat - 60 °C; quvvati - 3 kW; sof og'irligi - 28 kg; o'lchami 400x380x959 mm.

Jamlanma tarkibi: tozalash vositasi uchun

integrastiyalashgan soploli manometrli pistolet, yuqori bosimli shlang (12 m), purkash trubasi - Variopower, yuvish cho'tkasi, tozalash vositasi uchun 2 dona bak, yuqori bosimli shlangni qo'lda o'rash uchun baraban.

Xorijda yuqorida ko'rsatilgan shlangali yuvish jihozlarining takomillashgan turlari qo'llaniladi. Ularda yuvish aralashmasining haroratini ko'tarish uchun maxsus isitgichlar qo'llaniladi. Jihoz yuvilayotgan yuzaga 80 °C da isitilgan suv zarrachasini 5-7 MPa bosimda va 140 °C da isitilgan bug'li zarrachani 1,4-1,6 MPa bosimda etkazib beradi. Havoning issiq paytlarida isitgich o'chirilib suv yoki yuvish aralashmasi sovuq holda ham etkazib berilishi mumkin.

Isitgichli jihoz hammabop bo'lib, ular avtombillarning sirtini, tagini va ularning dvigatellarini, agregatlar bo'laklarga ajratilganda ularning detallarini, salonning devorlari va pollarini yuvishda ishlatalishi mumkin. Bir necha turda ishlab chiqariladigan bu jihozlar suvni 750-3000 l/s hajmda etkazib berishi mumkin.

Avtomobilarni yuvish ishlarini mexanizastiyalash maxsus uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday uskunalar ishchi organining tuzilishi, avtombilning va ishchi organining nisbiy harakatlanishi, qo'llanilish sharoiti va boshqarilishi bo'yicha tasniflanadilar.

Zarrachali yuvish qurilmasi, asosan, engil avtombillar(4-rasm) yuk avtombillari(5-rasm), o'zito'kkichlar, tirkama va yarim tirkama bilan ishlovchi avtombillarni yuvish uchun mo'ljallangan.

HULOSA

Avtomobilarni yuvish-tozalash ishlaridan maqsad kuzovda qolgan yuk qoldiqlarini yig'ishtirish, yuk avtomobillarining kabinalari, avtobus va engil avtomobil salonlarini changdan tozalashdan iborat.

Tozalash ishlarida kuzovda qolgan yuk qoldiqlari yi'gishtiriladi, yuk avtomobillarining kabinalari, avtobus va engil avtomobil salonlari changdan tozalanadi. Buning uchun xar xil turdag'i changyutgichlardan foydalilaniladi, ularning qo'z'galmas va qo'z'galuvchan turlari mayjud. Tozalash ishlarida qo'z'galuvchan va qo'z'galmas changyutgichlar ishlataladi.

Avtomobilarni yuvish qurilmalari umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Umumiy turdag'i yuvish jihozlari yuvishga qulay bo'lib, ular yordamida avtomobilning ostini ham yuvish mumkin. Bu ishlar maxsus maydonda va turli ko'rish ariqlarida, estakada va ko'targichlar yordamida bajariladi. Ko'rish ariqchalari devorlari, maydonchalar yuzasi nam o'tkazmaydigan lappakchalar bilan qoplanib, poli suvlar oson oqib ketishi uchun 2-3% qiyalikda bo'ladi.

Avtomobillar turiga hamda yuvish usuliga qarab, maxsus yuvgichlar qo'lda yuvish uchun moslashgan, mexanizastiyalashgan, avtomatlashgan va aralash turda bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatov, U. F. O. G. L., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2022). KORXONADA AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO 'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 62-68.
2. Utkirjon, R., Hasanboy, S., Sardor, I., & Sukhrobjon, P. (2022). DEVELOPMENT THE PUBLIC TRANSPORT PRIORITY WITH BUS RAPID TRASIT (BRT) ON INTERSECTIONS ROADS IN UZBEKİSTAN. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 298-301.
3. Rasuljon o'g'li, S. X. (2022). SERVIS XIZMAT KO'RSATISH STANSIYASLARIDA BAJARILADIGAN XIZMATLAR SIFATINI ANIQLASH USLIBINI ISHLAB CHIQISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 264-269.
4. Rasuljon o'g'li, S. X., Farxod o'g', R. O. T., Sardor, I., Suxroboj, P. L., & Elyorbek o'g'li, S. D. (2022). AVTOMOBILLARGA SERVIS XIZMAT KO'RSATISH STANSIYASLARIDA BAJARILADIGAN XIZMATLAR SIFATINI ANIQLASH USLIBINI ISHLAB CHIQISH VA XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH YO'LΙ BILAN AVTOSERVIS KORXONASINING RAQOBATBARDOSHЛИGINI TA'MINLASH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 312-315.
5. Rasuljon o'g'li, S. X., Farxod o'g', R. O. T., Sardor, I., Suxroboj, P. L., & Elyorbek o'g'li, S. D. (2022). AVTOSERVIS KORXONADAGI TEXNIK XIZMAT KO 'RSATISH VA MIJOZLAR BILAN ISHLASHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 302-306.
6. Rasuljon o'g'li, S. X. (2023). AVTOKORXONALARDA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH BO'LIMI FAOLIYATINING SIFATINI UMUMIY BAHOLASH VA TEXNIK TAYYORGARLIK KOEFFITSIENTINI QO'LLASH BILAN BIRGA, UNING

SIFAT VA EKSPLUATATSIYA XARAJATLARI DARAJASINI
HISOBLASH. *Mexatronika va robototexnika: muanimolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 338-342.

7. Raxmatov, O., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2021). Avtotransport vositalariga mavsumiy servis xizmat ko'rsatish turlari va ularning xarakat xavfsizligiga ta'siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1147-1151.
8. Baynazarov, K., Turayev, S., Giyasidiniv, A., Ismailov, S., Maxammadjonov, N., & Sotvoldiyev, X. (2024). Calculation for variations in resistance force during trailer unloading device operation. In E3S Web of Conferences (Vol. 471, p. 04014). EDP Sciences.
9. Rasuljon o'g'li, S. X. (2021). AVTOTRANSSPORT VOSITALARIGA MAVSUMIY SERVIS XIZMAT KO'RSATISH TURLARI VA ULARNING XARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI.
10. Raxmatov, U. F. O. G. L., Burxonov, S. U. B. O. G. L., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2022). IXTISOSLASHTIRILGAN TRANSPORT VOSITALARIGA TEXNIK XIZMAT KO 'RSATISHNI VAQTIDA AMALGA ISHIRISHNING EKSPLUATATSIYA SHAROITIDAGI SALMOG 'I. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 77-82.
11. Илхомов, С., & Пулатов, С. (2022). ОБСЛУЖИВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВОДСТВЕ, И ЕГО ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ ВОЗДЕЙСТВИЯ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 293-297.